UDK: 821+891.550 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a82**

«BOBURNOMA» MATNIDAGI SHAXSLAR TASVIRIDA SAJ'I MATAVOZIYNING O'RNI VA ULARNING INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS ETISHI

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ САДЖИ МАТАВАЗИ В ОПИСАНИИ ПЕРСОНАЖЕЙ ТЕКСТА «БОБУРНОМА» И ЕГО ОТРАЖЕНИЕ В ПЕРЕВОДАХ

THE ROLE OF SAJ'I MATAWAZI IN THE DESCRIPTION OF THE CHARACTERS IN THE TEXT «BABURNAME» AND ITS REFLECTION IN ENGLISH TRANSLATIONS

Sherg'oziyev Shuhrat Sheraliyevich[1]

[1]Sherg'oziyev Shuhrat Sheraliyevich - Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Maqolada «Boburnoma» matnidagi saj'larning Leyden-Erskin, A.S.Beverij va V.Tekstonlar tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalarida asliyatda foydalanilgan saj'larning tarjimasi haqida so'z boradi. Shuningdek matnda kelgan saj'larni ifoda etishda tarjima etilayotgan tilga oid muqobil variantlar bilan almashtirish lozimligi tilga olingan. Saj'larning qofiyadosh, vazndosh shakllarini saralash, matnda aks ettirish tarjimada asliyat ruhiyatini saqlab qolish muhimligi to'g'risida ham fikr yuritaladi.

Аннотация

В статье говорится о переводе саджей в текстах «Бобурнома», первоначально использовавшихся в оргинальном тексте английских переводах Лейден-Эрскина, А.С.Бевериджа и В.Текстона. Также упоминается, что выражения саджей в тексте должны быть заменены альтернативными вариантами, относящимися к переводимому языку. Обсуждается также выделение рифмованных и взвешенных форм саджей, их отражение в тексте, важность сохранения духа оригинальности в переводе.

Abstract

The article deals with the translation of saj's in the texts of «Boburnoma», originally used in the original text of the English translations of Leiden-Erskine, A.S.Beveridge and W.Thackston. It is also mentioned that saj' expressions in the text should be replaced with alternatives related to the target language. It also discusses the selection of rhymed and weighted forms of saj', their reflection in the text, the importance of preserving the spirit of originality in translation.

Kalit so'zlar: *saj', qofiya, asliyat matni, lingvopragmatika, lingvomadaniyat, asar qahramoni, tarixiy shaxslar, proza, muqobil, qo'lyozma.*

Ключевые слова: *садж, рифма, оригинальный текст, лингвопрагматика, лингвокультура, герой произведении, исторические личности, проза, альтернатива, рукопись.*

Key words: *saj, rhyme, original text, linguopragmatics, linguoculture, character of the work, historical figures, prose, alternative, manuscript.*

KIRISH

Mumtoz asarlarni mutolaa qilish chog'ida juda ko'plab saj'larga duch kelamiz. Lekin kitobxon o'qiyotgan asarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etilayotganligi va bu joyda saj' san'atidan foydalanganligi o'quvchini ko'z o'ngida gavdalanmaydi. Lingvistik nuqtayi nazardan e'tibor qaratib, uning asl mohiyati qanday ekanligiga nazar soladigan bo'lsak, bu lo'nda tarzda berilayotgan tasvir saj' ekanligini tushunib yetamiz.

Bizga ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq mamlakati xalqlarining og'zaki va yozma adabiyot manbalarida keltirilganidek, o'zbek xalq og'zaki va yozma nasrining asosiy badiiylik jihatlaridan biri saj' san'ati hisoblanadi. Shunday ekan, bu badiiy vositalardan biri o'zbek adabiyotshunosligida sa' san'atini namoyon etsada, uning xalq nasri, mumtoz adabiyot prozasida tutgan o'rni va vazifalari ilmiy jihatdan to'la tadqiq etish maqsadga muvoiqdir.

Jahon adabiyotida noyob va durdona asarlar talaygina bo'lsada, ular ichida eng sara asarlardan biri «Boburnoma» asaridir. «Boburnoma» jahon adabiyoti va tarixida muhim o'rin egallagan asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarning jahon miqyosida muhim o'rin egallashining asosiy jihatlaridan biri, asardagi voqealar va tasvirlarning aniq va lo'nda berilganidadir.

Bu asar tarixiy manba bo'lib, ilm fanning turli jabhalarini o'z ichiga oluvchi nodir kitob hamdir. Asarda Bobur yashagan davrning iqtisodiy va madaniy hayoti, siyosiy-ijtimoiy, o'sha

zamonda yashab ijod etgan adiblar, tarixiy shaxslar va hududlar joylashuvi, ularning paydo bo'lish tarixi va nomlari ham badiiy shaklda o'zining yorqin ifodasini topgan.

«Boburnoma» memuar asarining qo'lyozma nusxalari va tarjimalari jahonning ko'plab kutubxonalaridan joy olgani, xorijiy olim va tarjimonlarni e'tiboriga tushganligi ligi ham asarning qanchalik ahamiyatli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Asar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar salmog'i asarning qimmatini belgilaydi. «Boburnoma» matnidagi saj' tarjimalarining tadqiqini yoritib berish, hamda ularni ingliz tiliga adekvat tarjima qilish muammolari tarjimashunoslikdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.Qudrat Musayev o'zining «Tarjima nazariyasi asoslari» kitobida tarjimaning vazifalari haqida quyidagi fikrlarni yozadi. Asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik xodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, to'la to'kislikning, demakki, ifoda me'yorining buzilishiga harfxo'rlikning sodir bo'lishiga olib keladi. Asl nusxa muallifidan voqelikni to'g'ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxani bekami-ko'st talqin etish talab qilinadi.[1.b-10]

ADABIYOTLAR TAHLILI

«Boburnoma»da keltirilgan shaxslarni tasvirlashda Bobur saj'lardan juda mohirona foydalangan. Bu o'z navbatida o'quvchini o'sha shaxs ichki kechinmalari va turli vaziyatlardagi holatlarini jumlalardagi saj' orqali tushunishlari yanada oson bo'ladi. «Boburnoma»da saj' qo'llanilgan o'rinlardan yana biri u yoki bu tarixiy shaxslar xarakteristikasi hisoblanadi. Bunday o'rinlarda saj' qo'llash muallifga o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan shaxslar xulq-atvorini ixcham, ammo to'laroq xarakterlash imkonini beradi va shu bilan birga tasvirlanayotgan shaxsga xos xislatlarning o'quvchi xotirasida mustahkam saqlanib qolishiga ham zamin yaratadi.[2.b-124]

Bobur Sulton Mahmud mirzoning amirlaridan Ayubni quyidagicha tavirlaydi. *«Yana bir Ayyub edi. Sulton Abusa'id mirzo qoshida Xuroson chuxrasi chargasida xizmat qilur edi. Mardona kishi edi. Boysunqur mirzoning bek atkasi edi.* ***Yemak va kiymagi*** *sirfa bila edi.* ***Hazzol va xarrof*** *edi. Sulton Mahmud mirzo «behayo» deb muxotib qilur ekandur»* [3.b-50]. Ayyub sifatlarini tasvirlashda ***«Yemak va kiymagi sirfa bila edi. Hazzol va xarrof edi»*** kabi saj'lardan foydalangan. Bobur keltirgan yuqoridagi tasvirlashda Ayyubni yeyishi va kiyinishda tejamkorligi, hazilkash, ulfati va ko'p gapiruvchi sifatlarini ham keltirib o'tadi.

Ingliz tiliga tarjima qilingan ushbu jumlani ko'radigan bo'lsak A.Beverij tarjimasida: «*Ayub (Begchik Mughul) was another. He had served in Sl.Abu-sa'id Mirza's Khurasan Cadet Corps, a brave man, Baisunghar Mirza's guardian.* ***He was choice in dress and food a jester and talkative****, nicknamed Impudence, perhaps because the Mirza called him so*» [4.b-50-51]*(A.Beveridge; 50-51). (Yana biri Ayub edi Sulton Abusaid mirzo qoshida Xuroson yoshlar harbiy qismida xizmat qilar edi, mard kishi edi, Boysunqur mirzoning qo'riqchisi edi. Yemish va kiyishda ta'bi nozik, hazilkash va sergap edi. Laqabi surbet edi balki Mirzo shunday chaqirgani uchun shu laqabi bo'lgan MT)* «Boburnoma»dagi: «***Emak va kiymagi sirfa bila edi. Hazzol va xarrof edi***» *jumlasi «****He was choice in dress and food a jester and talkative****» (Yemish va kiyishda ta'bi nozik,)deb tarjima qilingan.* A.Beverij tarjimasida asliyatdagi saj' tarjimada to'la aks etmagan bo'lsa ham «***choice in dress and food a jester and talkative***» *so'zlar bilan Ayubni kiyinish va yemishi, hazilkash va sergapligni ifodalaydi.*

Keltirilgan matn Leyden-Erskin tarjimasida: *Another was Ayub, who had served Sultan Abusaid Mirza in the band of Khorasan Youths. He was a man of courage, and was Beg-atkeh (or governor) to Baiesanghar Mirza.* ***He was moderate in his table and dress, and of an humorous, lively torn.*** *Sultan Mahmud Mirza having called him Bihaya (or shameless), the epithet to him* [5.b-49] *(Boshqa biri Ayub edi, Sulton Ali Mirzoga Xuroson Yoshlar qismida xizmat qilardi. Mard kishi edi va Boysunqur Mirzoning bekatkasi (yoki boshlig'i) edi. Dastruxoni va kiyinishida ehtiyotkor, hazilkash edi. Sulton Mahmud Mirzo unga Bahayo (yoki uyatsiz) sifat berib chaqirar edi. MT)* Keltirilgan *«* ***Yemak va kiymagi*** *sirfa bila edi.* ***Hazzol va xarrof edi***» jumlasi «**He was moderate in his table and dress, and of an humorous, lively torn**» **(**Dastruxoni va kiyinishida ehtiyotkor, hazilkash edi) deb o'giriladi. Tarjimon asliyatda kelgan saj'larni o'z shakli bo'yicha keltirmagan bo'lsa ham jumla ma'nosini muqobil so'zlarni ishlatgan holda ifodalashga uringan.

V.Tekston tarjisaida esa: «*Another was Ayub. He had served sultan-Abusa'id Mirza in the Khurasan Page Corps. He was valiant. He was Baysunghur Mirza's beg atäkä.* ***He dressed and***

ate frugally. He liked to joke and was talkative. *Sultan Mahmud Mirza used to address him as "impudent".* » [6.b-64] *(Yana biri Ayub edi. U Xuroson Yoshlar harbiy qismida sulton Abusaid Mirzoga xizmat qilgan. U jasur edi. U Boysung'ur mirzoning beg atakasi edi. U tejamkorlik bilan kiyinardi va ovqatlanardi. U hazil qilishni yaxshi ko'rardi va sergap edi. Sulton Mahmud Mirzo unga "surbet" deb murojaat qilar edi.MT)* Matnda keltirilgan «***Yemak va kiymagi sirfa bila edi. Hazzol va xarrof edi***» *(U tejamkorlik bilan kiyinardi va ovqatlanardi. U hazil qilishni yaxshi ko'rardi va sergap edi)* saj' qo'llanilgan jumlasi «***He dressed and ate frugally. He liked to joke and was talkative***» *tarzida berilgan. Bu shaklda ham* ***Yemak va kiymagi, Hazzol va xarrof*** *sa'larini ifodalash uchun jumladagi ma'noni beruvchi so'zlardan foydalanilgan.*

Sulton Mahmud Mirzoning amirlaridan biri bo'lmish Ayubni janglar va yurishdardan tashqari uning kundalik hayot tarzi, tabiati, kiyinishi va ovqatlanishi tavsirlashda Bobur saj'lardan foydalangan holda qisqa va lo'nda jumlalar bilan keltiradi. Hatto Sulton Mahmud Mirzo uni sergapligi va hazilkashligidan uni "behayo" deb chaqirishini ham yozib o'tadi.Tarjimalarda guvoh bo'lganimizdek matnda kelgan saj'larni ayni shaklini ifodalalash biroz qiynchilik yuzaga keltiradi. Shuning uchun tarjimonlar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun saj'lar beradigan ma'noga mos keluvchi so'zlardan foydalanishgan.

USLUB

Maqolani yoritishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, chog'ishtirma, pragmatik, tahlil va statistik tadqiqot metodlari qo'llanilgan. Maqolani yozish mobaynida tarjimada saj'larni tanlash, so'z va iboralarni o'zbek va ingliz tillaridagi muqobil so'zlarni solishtirish, qiyoslash, va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

NATIJA

«Boburnoma» matnidagi saj'larning A.Beverij, Leyden-Erskin va V.Tekstonnig ingliz tilidagi tarjimalari bo'yicha o'rganish, saj' tarjimalarini amalga oshirishda qanday yo'l tutish kerakligi bo'yicha fikrlar keltirilgan bo'lib tarjimalarda saj' qanday aks etgani va asl matndagi ma'noqay darajada saqlab qolinganligi maqolada keltirilgan.

XULOSA

Ingliz adabiyotida saj'san'ati mavjud bo'lmasada, asl matndagi badiiy tasvirlarni to'la ifodalash uchun tarjimonlar so'zlarning muqobil va qofiyadosh shaklini topganlar. Natijada tarjima matn vositasida tillar va madaniyatlararo kommunikativ moslik vujudga kelgan. G'.Rahimovning «Tillararo kommunikatsiyani amalga oshirish jarayonida pragmatik muammolar yuzaga kelar ekan, tarjimonning vazifasi tarjima jarayonining maqsadini to'g'ri anglagan holda, uni tarjima tili talabi, me'yori asosida qayta yaratishdan iborat. Muayyan tarjimaning pragmatik vazifasini aks ettirish tarjimondan ba'zan to'g'ri muvofiqlikdan voz kechgan holda, kitobxonning estetik ta'sirlanish darajasini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi», degan fikrlari maqolaning xulosasi sifatida xizmat qilishi mumkin.[7,93]

ADABIYOTLAR:

1. Q.Musaev. Tarjima nazariyasi asoslari. -Toshkent. «FAN» 2005

2.B.Sarimsaqov. O'zbek adabiyotida saj'. -Toshkent. «FAN» 1978

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma» -Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002

4. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969; – New Delhi, 1970; – Lahore, 1975.

5. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.− Edinburg, 1826.

6. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996.

7. G'.Rahimov .Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2016.